



MAMLAKAT VA UNING HUDUDLARIDA TASHQI SAVDO FAOLIYATINING DINAMIKA VA STRUKTURASINI BAHOLOVCHI ZARURIY KO'RSATKICHLAR

Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

e-mail: mirjonergashev1996@gmail.com

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 7 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss7/a32	Maqolada tashqi savdo faoliyatini milliy iqtisodiyotda ahamiyati hamda mamlakatimizda tashqi savdo statistikasini yuritishning bugungi kundagi holati tadqiq etilgan. Shuningdek, tashqi savdo jarayonlarini tadqiq qilishda zarur bo'ladigan qo'shimcha ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan.
KEYWORDS	tashqi savdo, eksport, import, savdo, kvota, diversifikatsiya, balans, rentabellik, hudud.

Kirish (Introduction/Введение).

Tashqi savdo jarayonlari muvofiqlashtirish milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim dastagi hisoblanadi. Shu munosabatan, barcha davrlarda mamlakatlar doimo savdo aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash ustida ishlashadi.

Mamlakatimizni rivojlantirishning "O'zbekiston-2030"[] strategiyasida ham tashqi savdo faoliyatini takomillashtirish borasida bir necha ilg'or maqsadlar belgilab olingan. Jumladan, tashqi savdo siyosatini muvofiqlashtirish asosida mamlakatda inflatsiya darajasi 5-6% da ta'minlash ishlari belgilab olingan. Bundan tashqari, mamlakatimizda eksport hajmini 45 mlrd. AQSH dollarga yetkazish hamda eksportyor korxonalar sonini 6,5 mingdan 15 mingga yetkazish ta'kidlab o'tilgan.

Yuqoridagi maqsadlarga erishishda albatta bizga yangi keng qamrovli statistik ko'rsatkichlar tizimiga katta ehtiyoj pado bo'ladi. Hozirgi bosqichda tashqi savdoni, xususan, O'zbekiston Respublikasining ta'sis subyektni tahlil qilish faqat an'anaviy uslublarda amalga oshirilmoqda. Eksportning tovar tarkibini atroflicha o'rganishga, shuningdek, hududda tashqi savdo rivojlanishini belgilovchi omillarni tahlil qilishga ham tegishli e'tibor qaratilmayapti. Eksportga yo'naltirilgan mintaqa eksportini tahlil qilishda statistik usullar va texnikalaridan foydalanish mamlakatimiz tashqi savdosini yaxshilashning asosiy omillari va yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Eksportga yo'naltirilgan subyektning tashqi savdosini kompleks o'rganishni takomillashtirish quyidagi jihatlarda ko'rinadi:

hudud tashqi savdosining umumiy tahlili (subyektning mamlakat tashqi savdosiga jalb qilinganlik darajasiga ko'ra tashqi savdosining tavsifi; subyekt tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlarini dinamik va geografik tahlili);

mamlakatning ta'sis subyekti eksportining tarkibiy tahlili, shu jumladan asosiy tovarlar eksportining tannarxi va fizik ko'rsatkichlarini o'rganish, multiplikativ-qo'shimcha modellardan foydalanish va eksport tuzilmasini chuqur o'rganish;

subyektning tashqi savdosini modellashtirish.

Har qanday hududning jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi hamda globallashtirish ta'siridan katta foyda olishning zaruriy sharti uning tashqi savdosi rivojlanishini prognozlashda iqtisodiy va matematik usullardan foydalanish hisoblanadi. Tashqi savdo esa asosiy tashqi savdo ko'rsatkichlari statistikasida ifodalangan dinamik va tarkibiy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Mamlakatlarda tashqi savdo faoliyatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimlari bo'yicha birinchi o'rinda BMT "Savdo va rivojlanish departamenti"ning qo'llanmalarida e'lon qilingan tavsiyalar e'tiborga olinishi lozim. Departamentning 2023-yilgi qo'llanmasida yaxshi savdo shartlariga ega bo'lishi hamda ularning tashqi savdo erkinligi ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etish ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari Yapon olimi E. Fuji "Savdo erkinligi nimani o'lchaydi" degan asarida, tashqi savdo erkinligi iqtisodiy ochiqlikni belgilab berishini ta'kidlagan. Bunda, investorlarni jalb qilishda mamlakatda savdo erkinligi qanday ekanligi katta rol o'ynaydi.

Olimlar R.K.Edeme va M.B.Sulemene o'z tadqiqotlarida savdo shartlarini yaxshilash mamlakatga o'z eksportining importida qimmatroq baholanishini ifodalaydi. Bu holat mamlakatda inflatsiyani jilovlashda qo'l kelishi bayon etilgan


Tashqi savdoni rivojida eksport import imkoniyatlarini baholash ham muhimdir deydi xitoylik iqtisodchi olimlar S.M.Chen Q.H.Zang. Ularga ko'ra kvotani belgilash mamlakat iqtisodiyotida eksport va import cheklavlarni belgilashda optimal qarorlar qilish imkonini yaratadi. Lekin ushbu ko'rsatkichlar orqali erkin bozor iqtisodiyotida milliy iqtisodiyotni barqarorligini ushlab uchun qancha miqdorda eksport amalga oshirishni belgilab olish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Methods/Методы).

Maqolada tashqi savdo jarayonlarini tadqiq qilish zarur bo'ladigan ko'rsatkichlar tizimlari chuqur tahlil qilingan. Bunda BMT "Savdo va rivojlanish departamenti"ning tavsiyalari hamda yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan. Bundan tashqari tanlab olingan ko'rsatkichlar tahlili amalga oshirilgan. Har bir taklif qilingan ko'rsatkichlarning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis/Анализ, Results/Результаты).

Tashqi savdo holati va rivojlanishini, jahon bozorida o'rinni har tomonlama baholash uchun beshta blokga birlashtirilgan o'zaro bog'langan statistik ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi.



1-rasm. Tashqi savdo statistikasining o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning bloklari

Birinchi blokda tashqi savdo qiymatining ko'rsatkichlari mavjud. Tovar va xizmatlarning tashqi savdosi ikkita qarama-qarshi oqimdan iborat - eksport va import. Ikkinchi blokda xizmatlarning eksport-import oqimlarining tur tarkibi va geografik yo'nalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar mavjud. Uchinchi blok tashqi savdoning muvozanatli ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. To'rtinchi blok dinamika intensivligining an'anaviy statistik ko'rsatkichlarini birlashtiradi - indekslar, mutlaq o'sishlar va o'sish sur'atlari (pasayishi), ular xizmatlar savdosi ko'lamini, tuzilmasi va balansi (eksport, import, savdo balansi va boshqalar) o'zgarishining mutlaq va nisbiy tezligini tavsiflaydi. qoplash koeffitsientlari) ma'lum bir davr uchun. Beshinchi blok mamlakat tashqi savdosi darajasini va xalqaro savdodagi faollik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni birlashtiradi.

Statistik amaliyotda tashqi savdoning analitik tavsiflari uchun quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- 1) tashqi savdo hajmi (eksport, import, tashqi savdo, tashqi savdo balansi);
- 2) tashqi savdoning rivojlanishi va muvozanati (iqtisodning ochiqlik darajasi, eksport kvotasi, importga qaramlik darajasi, eksportni import bilan qoplash darajasi);
- 3) tashqi savdo dinamikasi ("savdo shartlari" indeksi, elastiklik);
- 4) tashqi savdo samaradorligi (valyuta samaradorligi, byudjet samaradorligi, ishlab chiqarish samaradorligi).

1-jadval
Tashqi savdoning holati va rivojlanishini ifodalaydigan statistik ko'rsatkichlari tizimi

Ko'rsatkich	Formula	Xarakteristikasi
Iqtisodiyotning ochiqligi	$O_w = \frac{x}{GDP}$	iqtisodiyotning ochiqlik darajasi
Savdo shartlari	$W = \frac{P_x}{P_m}$	mamlakatning jahon savdosidagi mavqei o'zgartirish
Mamlakatning boshqa davlatlar orasidagi o'rimi*	$K_x = \frac{x_{ij}}{\sum_{i=1}^n x_{ij}}$	dunyoning ayrim tarmoqlar yoki tovar guruhlari bo'yicha xalqaro ixtisoslashuv darajasi*
Importga qaramlik ko'rsatkichi	$K_{Mx} = \frac{M_i}{S_i}$	ma'lum bir mahsulotning importi va iste'moli nisbati
Import kvota	$K_M = \frac{M}{GDP}$	importning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati
Eksport kvota	$K_M = \frac{X}{GDP}$	eksportning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati
Tashqi savdo kvotasi	$K_M = \frac{FTT}{GDP}$	tashqi savdoning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati
Eksport diversifikatsiya indeksi	$S_j = \frac{\sum_{i=1}^k (h_{ij} - h_i)}{2}$	mamlakat tashqi savdosi tarkibidagi farqlar
Sof tashqi savdo indeksi	$NT = \frac{X - M}{X + M}$	eksportning importdan oshib ketish darajasi
Importni eksport bilan qoplanishi	$K_{X/M} = \frac{X}{M}$	eksportning importdan oshib ketish darajasi
Eksportning geografik konsentratsiyasi indeksi	$S_i = \sqrt{\left(\frac{x_i}{x_{ij}}\right)^2}$	muayyan mahsulot guruhlari uchun jahon bozorining holati
Bozorlik ko'rsatkichi	$K_{X+M} = \frac{X + M}{GDP}$	xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish darajasi
Eksport raqobatbardoshlik indeksi	$K_j = \frac{X_j}{HX_j}$	mamlakat eksportining raqobatbardoshligi
Eksport rentabellik ko'rsatkichi	$R = \frac{V}{C}$	tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalarning ayrim tovarlarini eksport qilish rentabelligi

Taqdim etilgan natijalarni hisobga olgan holda biz mamlakat va uning hududlari tashqi savdosining holati va rivojlanishining statistik ko'rsatkichlarining mualliflik tizimini taklif qilamiz (1-jadval).


Yuqoridagi ko'rsatkichlar tarkibiy qismlarining ma'nolari keyingi jadvalda keltirib o'tamiz.

2-jadval

Tashqi savdoning holati va rivojlanishini ifodalaydigan ko'rsatkichlarning belgilari


x, x_i, x_{ij}, HX_j	eksport, mahsulot turi bo'yicha eksport, mahsulot va hudud bo'yicha eksport, mamlakatning gipotetik eksporti
M, M_i	eksport, mahsulot turi bo'yicha eksport
S_i	mahsulot turi bo'yicha geografik konsentratsiyasi
GDP	yalpi ichki mahsulot
P_x, P_m	eksport va importning narx indeksi
h_i, h_{ij}	i-turdagi tovarlarning jahon eksportidagi ulushi, j-mamlakat umumiy eksportidagi i-turdagi tovarlarning ulushi
V, C	mamlakat korxonalari tomonidan tovarlarni sotishdan olingan foyda, mahsulot tannarxi
k	hududlar soni

Tovarlar va xizmatlar savdosining amalda ochiqligi iqtisodiy ochiqlik bo'yicha tadqiqotlarda qiziqishning asosiy mavzusi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarning asosiy o'lchovi YaIMga nisbatan savdo hajmi []. 2-jadvaldan ko'rinish turibdiki, de-fakto ochiqlikning alternativ chora-tadbirlari asosan Savdo/YaIM yondashuvining kichik komponentlari va o'zgarishlariga asoslanadi. Bundan tashqari, eksport/YaIM yoki import/YaIM kabi bir qancha variantlar. Agar tadqiqotda ochiqlik ko'proq "tashqi" (eksport) yoki ko'proq "ichki" (import) ma'nosida tushuniladigan ochiqlikka e'tibor qaratmoqchi bo'lsa, ko'rsatkichning qolgan variantlaridan ham foydalanishimiz mumkin.



2-rasm. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining ochiqlik indeksi

2019-2022-yil ichida dunyoning eng yopiq iqtisodiyotlaridan biri bo'lgan Turkmanistondan tashqari barcha Markaziy Osiyo davlatlari savdoga ochiqroq bo'ldi. Tovar savdosi qiymatining YaIMga nisbati sifatida hisoblangan Savdo ochiqligi indeksiga (2-rasm) asoslanib, Qirg'iziston Markaziy Osiyodagi eng ochiq iqtisodiyot hisoblanadi. Biroq, bu ko'rsatkich iqtisodiyotning kichik hajmini (2022 yilda mintaqaviy YaIMning atigi 3 foizini) va mamlakatning importga nisbatan yuqori qaramligini ta'kidlaydi. 2019-22-yillarda Qirg'izistonning umumiy tovar ayirboshlash hajmida o'tacha import ulushi 73 foizni tashkil etdi. Xuddi shu davrda Qirg'izistonning mahsulot eksporti 19 foizga o'sdi,



3-rasm. 2023-yilda jahonning eng yaxshi savdo shartlariga ega bo'lgan top-10 mamlakatlar

tovar importi esa 82 foizga o'sdi, bu birinchi navbatda 2022-yilda 73 foizga o'sishi qisman energiya narxining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekistonning savdo ochiqqligi ko'rsatkichi 2016-yildagi 0,24 dan 2022-yilda 0,54 gacha ko'tarildi. Mamlakatning 2016-yilda iqtisodiyotni (jumladan, valyuta kursini) liberallashtirish va qo'shni davlatlar va undan tashqari davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilashga kirishishi erkin iqtisodiyot indeksini yanada oshishiga olib kelgan.

Savdo shartlari eksport narxlar indeksini va import narxlar indeksini o'rtasidagi nisbat sifatida aniqlanadi. Agar eksport narxlarini import narxlaridan ko'proq oshsa, mamlakat ijobiy savdo shartlariga ega, chunki bir xil miqdordagi eksport uchun u ko'proq import sotib olishi mumkin[].

Savdo shartlarini yaxshilash mamlakatga o'z eksportining kamroq birliklari bilan ko'proq xorijiy tovarlarni sotib olish imkoniyatini berishi bilan baholanadi.[] Bundan tashqari, mamlakat o'zining tashqi zaxiralarini ko'paytirishi va import narxlarini eksport narxlariga nisbatan arzonroq bo'lganligi sababli xarajatlar yoki import inflyatsiyasi bilan bog'liq ichki inflyatsiyani to'g'ri boshqarishi mumkin. Shu bois qulay savdo shartlari mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, aholi bandligini ta'minlash uchun eshiklarni ochadi, raqobatni rag'batlantiradi, uy xo'jaliklarining xarid qobiliyatini oshirib, ularning daromad olish faolligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Taklif qilingan ko'rsatkichlarimizdan biri import, eksport va savdo kontekstida kvotalar hukumatlar tomonidan ma'lum bir davrda import yoki eksport qilinishi mumkin bo'lgan ayrim tovarlar miqdori bo'yicha o'rnatilgan cheklolarni anglatadi.[] Ammo, bozor iqtisodiyoti shartlarini istisno qilishi mumkin emas. Chunki, hukumatlar bozorlarni nazorat qilish va kengroq strategiyalarni amalga oshirish uchun kvotalardan foydalanadi, biroq kvotalar erkin bozorlarni buzadi va siyosiy keskinlikka

olib kelishi mumkin. Shu sababli eksport import kvotalari tadqiq qilish, hukumatni sohalarida mamlakat tashqi savdosini takomillashtirish yo'l xaritasi tuzish sifatida foydalanilishi kerak. Barqaror xomashyo manbai yo'qligi sababli bozorga hissa qo'sha olmaydi korxonalarga mavjud, shuning uchun ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish uchun import va eksport huquqini berish uchun maqbul kvota ajratish mexanizmini taklif qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Taklifimizda taqdim qilingan ko'rsatkichlar ro'yxati albatta kam, lekin bugungi kunda tashqi savdo faoliyatini takomillashtirish borasida qilinadigan ishlarda muhim qarorlar qabul qilish uchun asosli baholash imkoniyatini yaratadigan ro'yhati deb bilamiz. Biz ushbu ro'yhatga importning eksport bilan qoplanish ko'rsatkichini qo'shish zaruriyati yo'q degan xulosaga keldik. Chunki ikki ko'rsatkich bir xil holatni ikki yondashuvda izohlaydi.

Shunday qilib, tashqi savdoning tahliliy ko'rsatkichlari tizimini qurish uchun quyidagi tamoyillar asos bo'lishi kerak:

- 1) rasmiy ravishda qo'llaniladigan statistik ma'lumotlarni qurishning umumiy metodologiyasi va tamoyillariga muvofiqligi;
- 2) markazlashtirilgan statistika tizimidagi o'xshash ko'rsatkichlar bilan muvofiqligini ta'minlash;
- 3) foydalanuvchilarning tashqi iqtisodiy faoliyatda ro'y berayotgan asosiy faktlar va jarayonlarni aks ettiruvchi sifatli va tezkor axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

References:

1. . "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI TO'G'RISIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI
2. . Fuji, E. (2019). What does trade openness measure? Oxford Bulletin of Economics and Statistics, 81(4), 868–888
3. . OECD (2024), "Terms of trade" (indicator), <https://doi.org/10.1787/7722246c-en> (accessed on 03 April 2024).
4. . International trade - Terms of trade - OECD Data 2023.
5. . Richardson Kojo Edeme A, Sulemana Mumuni B, Terms of trade, governance and household income in selected African countries (sciencedirectassets.com)
6. . Siyuan Chen, Mingtong Li, Qi Zhang, Hailong Li-Study on the Oil Import/Export Quota Allocation Mechanism in China by Using a Dynamic Game-Theoretic Model - ScienceDirect
7. The International Trading System and Trade Negotiations | UNCTAD
8. Э.И.Юлдашев - "Ўзбекистон республикасида ташқи савдонинг ривожланиш жараёнларининг иқтисодий-статистик таҳлили
9. E.G.Popkova, Y.A.Sukhodolov-Foreign Trade as a Vector of Economic Growth in the Globalizing World
10. Mohammad Maruf, A.B. Hasan – The role of foreign trade and technology innovation on economic recovery in China: The mediating role of natural resources development.